



Received: April 13, 2025
Accepted: May 23, 2025
Available online: May 25, 2025

Mohida Qodirova

Tayanch doktorant
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Toshkent, O'zbekiston

TARIXIYLIKDAN BADIYLIKKA: “MO‘G‘ULLAR IMPERIYASI: SHIMOLDAN KELGAN FOTIHLAR” ROMANIDA TRANSFORMATSIYA JARAYONI TAHLILI

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” – avtobiografik asarida tilga olingan tarixiy shaxslar, voqealar va geografik joylarning ingliz adabiyotida, xususan, XXI asr boshida yozilgan Aleks Rutserfordning “Mo‘g‘ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fothlar” nomli tarixiy-sarguzasht romanida qanday badiiy transformatsiyaga uchraganini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari “Boburnoma” asarini asl manba sifatida olib, A.Rutserfordning ushbu tarixiy manba asosida yaratgan romanidagi o‘zgarishlar va ijodiy yondashuvlarni o‘rganish hamda tahlil qilish, shuningdek, badiiy asar syujetini tashkil etuvchi voqea-hodisalar, obrazlar va joylar yaratilishidagi motivlarni aniqlash, tarixiy jarayonlarning badiiy transformatsiyasini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz adabiyotidagi Bobur shaxsiga bo‘lgan munosabat va yondashuv, uning ingliz tili va adabiyoti tomonidan qabul qilinishi, tarixiy voqealarning qayta talqini, qahramonlar va asar syujetini batafsil tahlil qilish adabiyotshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biridir.

Tadqiqotning uslubiy asoslarini o‘zbek va ingliz adabiyotshunoslarining mazkur mavzu yuzasidan yozilgan maqolalari va ilmiy ishlanmalari tashkil etadi. Unda, shuningdek, muallif tomonidan tahlil qilinayotgan asarlar asosida olib borilgan qiyosiy-tahliliy kuzatuvlar

Mohida Qodirova

PhD Student
Alisher Navoiy Tashkent State University of
the Uzbek Language and Literature
Tashkent, Uzbekistan
E-mail: nazarovamohida@gmail.com
ORCID iD: 0009-0006-8172-9777

FROM HISTORY TO FICTION: AN ANALYSIS OF THE TRANSFORMATION PROCESS IN THE NOVEL “EMPIRE OF THE MOGHUL: RAIDERS FROM THE NORTH”

ABSTRACT

The primary aim of this study is to examine the artistic transformation of historical figures, events, and geographical locations mentioned in Zahiriddin Muhammad Babur’s autobiographical work, “Baburnama”, within English literature, specifically in the historical-adventure novel “Empire of the Moghul: Raiders from the North” by Alex Rutherford, published in the early 21st century.

The study’s specific objectives include analyzing “Baburnama” as a primary source and exploring the modifications and creative strategies employed by A.Rutherford in his fictionalization of this historical material. Furthermore, the study seeks to identify the motivations behind the creation of events, characters, and settings in the novel and to conduct a comparative analysis of the artistic transformation of historical processes.

Comparative analysis has revealed that the depiction of Babur in English literature, his reception by English-speaking audiences, and the reinterpretation of historical events and characters in the novel necessitate detailed examination, representing a significant task in contemporary literary scholarship.

The research methodology is grounded in the scientific works and articles of Uzbek and English literary scholars pertinent to the topic. It also incorporates the author’s own comparative-analytical conclusions derived from the texts under study.

According to research findings, A.Rutherford

va xulosalar ham o'z aksini topgan.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, A.Rutserford tarixiy voqealarni o'ziga xos tarzda badiiy talqin etib, jo'shqin syujetga ega sarguzasht roman yaratganligi aniqlanadi. Ushbu badiiy asarda Bobur shaxsi asosan jahongashta sarkarda sifatida tasvirlangan. Asar tarixiy manbaga asoslanishi bilan birga, bir qator jihatlari bilan "Boburnoma"dan farq qiladi. Jumladan, asar syujeti voqealarining qisman cheklanganligi, muallif uslubining o'ziga xosligi, voqealar rivojining adib ijodiy niyatiga muvofiq yo'naltirilishi va yozilish maqsadiga ko'ra mustaqil badiiy xususiyatlarga ega ekanligi bilan muayyan qimmatga ega.

Tadqiqot xulosalariga ko'ra, "Mo'g'ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fothlar" asari inglizxonlar uchun Bobur va uning davri, saltanati hamda yurishlari haqida umumiy tasavvur hosil qilish imkonini beradi, ammo u tarixiy manba sifatida emas, balki badiiy talqin sifatida qabul qilinishi lozim.

Kalit so'zlar: tarixiy transformatsiya, motiv, badiiy adaptatsiya, simvolizm, obrazlar transformatsiyasi, tarixiy aniqlik, tarixiy roman, originallik, Mo'g'ullar imperiyasi, Boburiylar.

KIRISH

Z.M. Bobur o'zining sermazzmun, turli voqea-hodisalarga to'la hayoti, qilgan yurishlari, mamlakatlar obodonchiligi, xalq farovonligi yo'lida olib borgan ishlari, qurdirgan inshootlari, madaniyat, ilm-fan sohalarida qilgan islohotlari va she'riyat mulkiga qo'shgan hissasi bilan ilm ahli qalbidan o'z o'rnini egallagan shaxsdir. Lekin uni "mashhuri zamon" qilgan asari bu "Boburnoma"dir. Ushbu asar mashhur ingliz yozuvchisi A.Rutserford ta'kidlaganidek, "musulmon adabiyotidagi birinchi avtobiografik asar"dir [Rutserford, 2009; 356]. Akademik V.V. Bartold ta'rifi bilan aytganda, "XVI asr turkiy nasrning mumtoz asari sifatida keng e'tirof etilgan yodgorlik" [Bartold, 1998] bo'lgan "Boburnoma" dunyo olimlari tomonidan ko'plab tillarga tarjima qilingan va asar asosida tarixiy, ilmiy hamda badiiy asarlar, kinofilmlar yaratilgan. Bunday asarlar Bobur shaxsini butun jahon ahliga sevimli inson darajasiga ko'tardi. Turli millat vakillari, jumladan, ingliz olimlari uch marta, nemis, fransuz va turk olimlari ikki martadan, golland, urdu, yapon, uyg'ur va polyak olimlari bir martadan, hind olimlari bir necha marotaba [Sobirov, 2002; 8] "Boburnoma"ning ushbu tillardagi tarjimalarini yaratishdi. Jahon olimlari tomonidan berilgan bunday e'tibor Z.M. Boburni global darajaga ko'tardi va endilikda uning asarlarini butun jahon mulki sifatida ko'rishimiz mumkin. Chunki, Bobur Turkiston hududida tug'ilgan bo'lishiga qaramasdan, dunyoning katta qismini kezib, Hindistondan ulkan mamlakatni o'z bayrog'i ostida birlashtirgan va katta imperiyaga asos solgan, M.M. Haydar ta'riflaganidek, "turli fazilatlar bilan bezangan va maqtoqli xislatlarga

ega bo‘lgan bir podshoh edi” [Haydar, 2011]. Shuningdek, Bobur yurishlari davomida bosib o‘tgan hududlarining tabiati, geografik joylashuvi, madaniyati haqida to‘lig‘icha ma‘lumot berishga harakat qildi.

Filologiya fanlari doktori, professor N.Otajonovning ta‘kidlashicha, G‘arb boburshunosligi, tarjima jihatidan, bir yarim asrlik tarixga ega bo‘lib, bu davr mobaynida Z.M. Bobur ijodi va “Boburnoma” asari bir qancha xorij olimlari tomonidan chuqur o‘rganildi [Otajonov, 1994; 112]. Xususan, ushbu asar tarjimasini, M.Sobirovning keltirishicha, ilk bora J.Leyden tomonidan boshlanib, uning zamondoshi U.Erskin tomonidan yakunlangan [Sobirov, 2002; 4]. Ikkinchi bo‘lib bu ishga A.S. Beverij qo‘l urgan va o‘z tarjimasini “Boburning shuhrati sharafiga yaratilgan”ini [Bābur, 1921b] yozib qoldirgan. Uchinchi tarjima U.M. Takston tomonidan yaratilgan bo‘lib, u o‘z tarjimasining kirish qismida asarning “haqqoniy va ochiq uslubda yozilganini, lekin bu asarning yozilishida Boburga nima turtki berganini aniqlash qiyinligini” [Babur, 1996; 9] ta‘kidlagan.

Shuningdek, mazkur asarni dunyo boburshunos olimlaridan M.Sale rus tiliga, R.R. Arat turk tiliga, R.A. Nadvi urdu tiliga, P. de Kurteyl fransuz tiliga, E.Mano yapon tiliga, S.A.A. Rizvi hind tiliga, V.Stammmler nemis tiliga muvaffaqiyatli o‘girdilar va shu bilan birga, ko‘plab ilmiy maqolalar yozildi. Bobur ijodini o‘rganishda o‘zbek olimlarining ham xizmatlari beqiyos. Jumladan, S.Azimjonova Bobur davri tarixi o‘rganilishida katta xizmat qilgan. Uning “Boburning Kobul va Hindistondagi davlatchiligi” kitobida tarixiy manbalar asosida Boburning Hindiston va markazi Kobul bo‘lgan Afg‘onistondagi davlatchilik faoliyati tahlil qilingan. Shuningdek, N.Otajonov o‘zining “Boburnoma” jahon adabiy jarayonida” nomli doktorlik dissertatsiyasida ushbu avtobiografik asarning dunyo ingliz tiliga qilingan tarjimalari tahlilini amalga oshiradi. “Bobur va “Boburnoma”” nomli monografiyasi esa ingliz kitobxonlariga Bobur va uning asarini o‘rganishdagi qisqacha qo‘llanma vazifasini bajaradi. Bundan tashqari, “Bobur o‘z feodal davrining bir farzandi bo‘lishiga qaramay, o‘zi yashab turgan muhitga tanqidiy nazar bilan qaray oladigan, feodal tabaqa mafkurasiga to‘g‘ri kelmaydigan bir qator ilg‘or g‘oyalarni ilgari sura olgan shaxs” [Otajonov, 2023; 82] bo‘lganligi va bu so‘zlarning isbotini “Boburnoma” asaridan topish mumkinligini yozadi. M.Sobirov “Boburnoma”ning inglizcha tarjimalarida muallif uslubi va badiiyatini qayta tiklash muammolari” mavzusidagi dissertatsiyasida “Boburnoma”ga “boshqa tillarga o‘g‘irish nuqtayi nazaridan “Ramayana” sirasidagi asar” [Sobirov, 2002; 16] deya ta‘rif bergan bo‘lsa, rus turkologi N.I. Ilminskiy esa “uning yaratilishida tilning bezakdor bo‘lishiga intilinmaganligi, Navoiy uslubidan namuna olgan holda, Andijon aholisi tilini sof saqlab yozilganini” qayd etadi [Bābur, 1857].

Shuningdek, o‘zbek boburshunoslaridan H.S. Quadratillayeva “Boburnoma”ning tarixiy-adabiy va uslubiy tahlili” nomli dissertatsiyasida “Boburnoma”ni tarixiy-adabiy jihatdan o‘rganadi va yozuvchi uslubini tahlil qiladi. I.I. Sulaymonov “Boburnoma”da g‘olib va mag‘lub shaxs ruhiy holatining badiiy tasviri” deb nomlangan dissertatsiyasida ushbu memuar asardagi ruhiy holatlar aks etgan o‘rinlarni badiiy jihatdan tahlil qiladi. D.M. Xoshimova esa “Boburnoma” asarining tanqidiy

matnini yaratish muammolari” nomli nomzodlik dissertatsiyasida “Boburnoma”ning tanqidiy matnlar tahlili va ularning yaratilish jarayonidagi muammolarga to‘xtalib o‘tadi. R.Karimov Boburning o‘z qaydnomasida keltirgan she‘rlarining tarjima jihatidan qiyosiy tahlili to‘g‘risida “Boburnoma”dagi she‘rlar xorijiy tarjimalarining qiyosiy tahlili” nomli dissertatsiyasida so‘z yuritgan bo‘lsa, A.P. Ibrohimova “Boburnoma”dagi hindcha so‘zlar tadqiqi” dissertatsiyasida asar tarkibida keltirilgan hind tilidagi so‘zlarning qiyosiy tahlili va ularning qo‘llanilish sabablarini o‘rganadi. Shu bilan birga, tarixshunos olim G‘.Sotimov xorijda yaratilgan tarixiy manbalar asosida yozilgan “Boburzodalar” nomli risolasida Bobur oilasiga kiruvchi barcha tarixiy shaxslar haqidagi qisqacha ma‘lumotlarni tadrijiy tahlilini keltirish hamda taniqli tarixnavis I.Aminiy qalamiga mansub “Boburning olmosi” nomli kitobini o‘zbek tiliga o‘girish orqali o‘zbek boburshunosligiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shadi. Shuningdek, Boburning ayollari ta‘rifida Bibi Muborika begim haqida iliq fikrlar bildirib, uning “eriga bo‘lgan sadoqati va vafodorligi tufayli Shershoh Sur tazyiqi ostida saroydagilar Agra va Dehlini tashlab chiqib ketayotgan ayanchli bir paytda marhum erining vasiyatini amalga oshirish maqsadida Shershohning ruxsati bilan Boburning qabrini Kobulga ko‘chirib olib kelib dafn qilganligini” [Sotimov, 2003; 10] tilga oladi.

Bobur ijodini chuqur o‘rgangan ingliz tarjimonlari (J.Leyden, U.Erskin [Bābur, 1921a], A.S. Beverij [Bābur, 1921b], U.M. Takston [Babur, 1996]) bilan bir qatorda ingliz yozuvchilari tomonidan Bobur hayoti yo‘liga bag‘ishlab turli asarlar yozilishi, badiiy filmlar suratga olinishi uning shaxsi dunyo ahli qalbidan qanday joy egallaganini yaqqol ko‘rsatib beradi. Jumladan, E.F. Stilning “Jahongashta qirol”, A.Rutserfordning “Mo‘g‘ullar imperiyasi”, H.Lembning “Bobur – yo‘lbars: Ilk mo‘g‘ul” va shu kabi bir necha asarlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Ushbu asarlar “Boburnoma”dagi asl tarixiy voqealarga tayangan holda yozilgan bo‘lib, har bir asar muallifi Bobur shaxsiga bo‘lgan o‘zgacha yondashuvi bilan ajralib turadi. Jumladan, E.F. Stil o‘z asarida Bobur buyuk sarkarda va shohlikdan tashqari, chin oshiq va shoir sifatida tasvirlaydi va farqli ravishda uning she‘rlaridan namunalar keltiradi. U asari muqaddimasida “billur kosa, Boburning Mohimga uylanishi to‘lig‘icha to‘qima ekanligini, Muhammad payg‘ambar uchun Oyisha qanday bo‘lsa, Mohim Bobur mirzo uchun shunday ahamiyatga ega bo‘lganini” yozadi [Steel, 1912]. A.Rutserford asarida esa jahongashta jangchi tarzida gavdalangan bo‘lsa, H.Lemb asarida uning jahongashtalik, jasurlik, ma‘rifatparvarlik kabi xislatlariga guvoh bo‘lish mumkin. Yozuvchi Bobur ta‘rifida “Yo‘lbars Osiya xaritasini yirtib tashladi va uni o‘z siyomosida qayta yaratdi” [Lamb, 1964] degan fikrni olg‘a suradi. Shuningdek, Bobur hayotini chuqur o‘rgangan tarixchi olim S.F. Deyl “Bobur hayotini o‘rganishda uch asosiy nashr borligini, bular Eiji Mano, A.S. Beverij hamda Rashid Rahmeti Aratga tegishli” [Dale, 2018; 12] ekanligini qayd etadi hamda Boburni o‘z davrining yetuk siyosat arbobi sifatida tasvirlaydi va Bobur tarixini xalqaro qamrovda o‘rganish uchun muhim zamin yaratadi.

Boburning hayot yo‘li nafaqat ingliz, balki o‘zbek yozuvchilari tomonidan ham o‘rganilgan, badiiy talqin etilgan. Jumladan, P.Qodirov (“Yulduzli tunlar”,

1978), X.Davron (“Samarqand xayoli”, 1989), B.Boyqobilov (“Kun va tun” she’riy qissasi, 1968), X.Sultonov (“Saodat sohili”, 2005, “Boburiynoma”, 1997; “Boburning tushlari”) tomonidan badiiy asarlar yaratilgan va adabiyotshunoslarimiz tomonidan ushbu asarlar keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Jumladan, ikki yozuvchi – P.Qodirov va X.Sultonov o‘z romanlariga yozgan so‘zboshilarda Bobur shaxsi va ijodiga talabalik yillarida qiziq boshlaganliklarini, “Bobur mirzo temuriylar sulolasini asrdan asrga va bir mamlakat tarixidan ikkinchi bir mamlakat tarixiga eson-omon olib o‘tgani yozuvchi qalbida iftixor tuyg‘usini uyg‘otgani” [Qodirov, 2019], uning mardlik, muruvvat, zakovat va matonatda tengsiz shaxsiyatiga maftun bo‘lganliklari” [Sultonov, 1997]ni ta’kidlashgan. Biroq ingliz yozuvchilari tomonidan yozilgan yuqorida nomlari tilga olingan badiiy asarlar bilan o‘zbek kitobxonlari yetarlicha tanish emas. Ingliz adabiy muhitida Bobur shaxsi va ijodini qanday qabul qilganligi, yozuchilar tomonidan qay yo‘sinda tasvirlanganligi va ularning boburiylar sulolasiga bo‘lgan munosabatini aniqlash, mana shunday asarlardan biri bo‘lgan – A.Rutserfordning “Mo‘g‘ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fotihlar” asarini tahlil qilish, uni asliyat bilan solishtirish mazkur maqolamizning asosiy vazifalaridan biridir. Bundan tashqari, ayni asar tarkibida “Boburnoma”da uchraydigan tarixiy shaxslar, joylar va voqea-hodisalar transformatsiyasining nazariy va adabiy tahlili tadqiqotimizning predmeti hisoblanadi.

“Mo‘g‘ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fotihlar” asari olti kitoblik romanlar to‘plamini tashkil etadi. Asar muallifi A.Rutserford ikki ingliz yozuvchisi – D.Preston hamda uning turmush o‘rtog‘i M.Prestonlarning umumiy taxallusi bo‘lib, ushbu ikki yozuvchi birgalikda Bobur bosib o‘tgan yo‘llardagi sayohatlari tassurotlari, “Boburnoma”ning asl matni hamda ingliz tiliga qilingan ikki tarjimasi (A.S. Beverij, U.M. Takston) asosida bu asarni yaratishgan. Ushbu asar mualliflari ikki kishi bo‘lgani asar yozilishi jarayonida qisman qiyinchiliklarni vujudga keltirganiga qaramay, ular birgalikda muvafaqqiyatli romanlar to‘plamini yozishdi. Bu haqida D.Preston “The Hindu” saytiga bergan intervyusida shunday deydi: “Biz doim birga ishlashdan zavqlanganmiz va bu jarayon nisbatan tabiiy sodir bo‘lgan deb o‘ylaymiz. Aslida asar yozish yolg‘izlikda sodir bo‘ladigan jarayon va yozuvchi kim bilandir suhbatlashib asarining yaxshi va yomon tomonlarini aniqlab oladi. Biz bu borada katta ustunlikka egamiz” [Rutherford, 2019]. A.Rutserford Hindistonga qilgan sayohati taassurotlari hamda boburiylar tarixiga qiziqish sabablari haqida o‘z blogida shunday yozadi: “Yillar davomida butun Hindiston bo‘ylab, Rajaston cho‘lidan to Kashmirdagi Dal ko‘ligacha sayohat qildik. Shimoliy Hindistondagi ulkan mo‘g‘ul (boburiy) inshootlari – Humoyun maqbarasi, Dehlidagi Qizil qal’a, Akbar maqbarasi, Toj Mahal bizni maftun etdi. Biz bu inshootlarning mualliflari bilan qiziqdik va ularning tarixnomalari, kundaliklarini o‘qishni boshladik” [Rutherford, n.d.]. Asar olti kitobdan iborat bo‘lib, birinchi kitob “Mo‘g‘ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fotihlar” Bobur hayotiga bag‘ishlangan. Qolgan beshta qismda: “Aka-ukalar urushi” – Boburning o‘g‘li Humoyun davri, “Dunyo hukmdori” – Buyuk Akbar, “Bulg‘angan taxt” – Jahongir, “Ilon tishi” – Shohjahon va “Soyadagi sotqinlar” – Avrangzeb davri voqealari tasvirlangan.

“Mo‘g‘ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fotihlar” asarida Umarshayx

mirzoning vafotidan boshlab 1530-yil, ya'ni Bobur vafotiga qadar bo'lgan voqealar badiiy talqin etiladi. A.Rutserfordning bu asari original "Boburnoma" matniga asoslangan bo'lishiga qaramay, qahramonlar, voqealar, joylar ifodasida transformatsiya jarayoni ko'zga tashlanadi. Bu holat muallifning asar o'quvchilariga Bobur shaxsi hamda davrini yaqinlashtirish, yaxshiroq tushinishda qulaylik yaratish maqsadi natijasida yuzaga kelgan deyish mumkin. Mashhur ingliz adabiyotshunosi T.Iglton ta'kidlaganidek, "barcha adabiy asarlar ularning o'quvchi jamiyatlari tomonidan "qayta yoziladi", qayta yozilmaydigan asarlar qayta o'qilmaydi ham" [Eagleton, 2008]. Shunga asosan, A.Rutserford ham tarixiy voqealarga o'zining Bobur haqidagi tasavvurlari hamda munosabatiga asoslangan holda yondashadi. Ayrim o'rinlarda "Boburnoma"da tushirib qoldirilgan voqea-hodisalarga o'zining taxminiy tushunchalari asosida to'qima syujetlarni kiritadi yoki ayrim o'rinlarda o'zgartirishlar kiritadi va inglizabon kitobxonlar uchun tushunarli holatga keltiradi.

Bundan tashqari, yana bir nechta sabablar ham borki, ular badiiy to'qima elementlarini asar tarkibiga kiritilganligiga asos bo'lishi mumkin. Birinchidan, badiiy to'qima elementlari asarni yanada jozibador qiladi va o'quvchi e'tiborini o'ziga jalb etadi. Angliyalik nazariyotchi olim J.Senders "Moslashtirish va o'zlashtirish" ("Adaptation and appropriation") nomli asarida "original matn asosida yaratilgan yangi asarlar adaptatsiyaviy xususiyatga ega bo'lishi va bu jarayon ko'pincha manba matniga sharh berish bilan bog'liq bo'lsa-da, unga ko'p hollarda asl nusxadan qayta ko'rib chiqilgan nuqtayi nazarni taklif qilish, faraziy motivatsiya qo'shish yoki to'qimachilik nimani susaytirgan yoki nimani chetga surib qo'yganini aytish orqali erishilishi"ni [Sanders, 2015] ta'kidlaydi. Shuningdek, "Boburnoma" tarkibidagi ba'zi yo'qotilgan ma'lumotlar o'rnini to'ldirishda va o'quvchida kengroq tasavvur uyg'otishda yordam beradi. G.Lukach aytganidek, "tarixiy romanda muhimi buyuk tarixiy voqealarni qayta hikoya qilish emas, balki o'sha voqealarda ishtirok etgan odamlarning badiiy uyg'onishidir. Muhimi, biz odamlarni xuddi tarixiy voqelikda bo'lgani kabi fikrlash, his qilish va harakat qilishga undagan ijtimoiy va gumanitar bilimlarni qayta boshdan kechirishimiz kerak" [Lukács, 1962]. Bundan tashqari, tarixiy asar yaratish yozuvchidan katta mas'uliyat talab qiladi, chunki u xuddi tarixni o'quvchilar ko'z o'ngida qayta yaratishga o'xshaydi. R.J. Kollingvud tarixni qayta tiklash jarayonini "tarixiy tasavvurdan aniq foydalangan holda manbalarimiz bizga beradigan ma'lumotlaridagi bo'shliqlarni to'ldirish yoki ularni bog'lash jarayoni" [Collingwood, 1961; 240-241] deb ta'rif beradi. S.Linet fikricha: "O'tmishni tarixiy fantastika orqali qayta qurish uni o'zboshimchalik bilan qayta yozishni anglatmaydi, balki u o'tmishning yangi qirralarini izlashdek mas'uliyatli vazifadir" [Linnet, 2021; 46]. Shuningdek, muallif Bobur hayotida sodir bo'lgan voqea-hodisalar, uning atrofidagi tarixiy shaxslar obrazlarini muvaffaqiyatli tarzda o'z asariga ko'chirgan va bu jarayonda transformatsiya jarayonidan foydalangan. Transformatsiya haqida so'z ketganida, avvalo, intertekstuallik (*intertextuality*), moslashtirish (*adaptation*) hamda o'zlashtirish (*appropriation*) jarayonlari tushuniladi. J.Senders *moslashtirish* jarayoniga quyidagicha ta'rif beradi: "Adaptatsiya bir janrni ikkinchi bir janrga o'tkazib, uni qayta ko'rib chiqadigan transpozitsional mashg'ulotdir. U ayrim jihatlarda

kesish va kalkalash bilan shug‘ullanuvchi tahririy mashg‘ulotlarga parallel keladi. Ammo u asarga qo‘shimcha qiluvchi, kengaytiruvchi va to‘plovchi kuchaytirilgan jarayon bo‘lishi ham mumkin” [Sanders, 2015]. Shuningdek, T.S. Eliot “An’ana va individual iste’dod” essesinde adaptatsiya va o‘zlashtirish jarayoniga “adabiy meros va san’atkor o‘rtasidagi yangi birikmani hosil qiluvchi kimyoviy reaksiya” [Eliot, 1920] deb ta’rif beradi. Tarixiy asar o‘qishni yoqtirmaydigan auditoriya e’tiborini badiiy syujetlar orqali jalb etish mumkinligi hamda badiiy asardagi yozuvchi erkinligini hisobga olganda, A.Rutserford Bobur hayoti qiziqarli tarzda yoritib berilgan dramatik asarni yaratgan deyishimiz mumkin.

TADQIQOT METODLARI

Ushbu tadqiqotga “Boburnoma”ning V.Rahmonov hamda K.Mullaxo‘jayevo tomonidan tayyorlangan tabdil varianti va A.Rutserfordning “Mo‘g‘ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fohihlar” (“Empire of the Moghul: Raiders from the North”) asarlarini o‘zaro solishtirish, o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash hamda A.Rutserford asariga asos bo‘lgan motivlarni o‘rganish asos qilib olindi. Shu sababli, tadqiqot davomida yuqorida nomlari keltirilgan ikki asarni o‘zaro qiyosiy tahlil qiluvchi metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asoslari va nazariy-metodik usuli qiyosiy-tipologik va qiyosiy-tarixiy metodlar negizida bo‘lib, qiyosiy adabiyotshunoslik tabiatidan kelib chiqadi.

Qiyosiy-tarixiy metod asosida “Mo‘g‘ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fohihlar” asarida tasvirlangan, asl manbasi “Boburnoma” tarkibida ham mavjud bo‘lgan tarixiy shaxslar, voqea-hodisalar va joy nomlari o‘rganildi. Ularning har ikkala asar ifodasidagi o‘xshash jihatlarini, shuningdek, A.Rutserford asariga transformatsiya jarayonida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar tahlil qilindi. Jumladan, qahramonlar xarakteridagi yangicha xususiyatlar, voqealarning tarixiy asoslariga bog‘lanish darajasi o‘rganildi. Qiyosiy-chog‘ishtiruv metodi asosida A.Rutserford romanida to‘qima obraz sifatida ishtirok etuvchi, lekin voqealar rivojida faol ishtirok etadigan, tarixiy jarayonning noma’lum qirralarini ochib berishga xizmat qiluvchi qahramonlar, shuningdek, ayrim voqealar va joylar ta’rifi tahlil qilindi hamda ularning motivlari o‘rganildi.

Ushbu tadqiqotda mumtoz va zamonaviy adabiyot namunalarini ularning yaratilgan davri, tarixiy-siyosiy muhit va o‘quvchilar ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda qiyosiy tahlil qilish ko‘zda tutiladi. Asosiy e’tibor mualliflarning ijtimoiy, siyosiy va madaniy an’analar kontekstidagi umumiylik va farqliliklarini aniqlash hamda ularning estetik qarashlari va ijodiy maqsadlarini yashagan davrlari xususiyatlari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etishga qaratildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida taniqli o‘zbek va xorijiy adabiyotshunos olimlar M.Sobirov, N.Otajonov, T.Iglton, J.Senders, S.Linet, T.S. Eliotlarning adabiyot nazariyasi, tarjimashunoslik hamda transformatsiya xususidagi ilmiy qarashlariga tayanildi va ularning adabiyotshunoslik, transformatsiya jarayonlari va badiiy ijod haqidagi asarlari tadqiqotning nazariy asosi vazifasini bajardi.

NATIJALAR

“Mo‘g‘ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fohihlar” asari 2009-yilda “Headline

Review” (London) nashriyoti tomonidan chop etilgan va inglizxabon o‘quvchilar tomonidan yaxshi qabul qilingan [Rutherford, 2009]. Asar haqida britaniyalik-janubiy afrikalik mashhur yozuvchi V.Smit quyidagicha ta’rif beradi: “Haqiqiy tarixiy shaxslar va ulkan voqealar bilan boyitilgan, butunlay o‘ziga jalb etuvchi hikoya. Dahshatli, ammo ulug‘vor vahshiylik hukm surgan davrda kechuvchi bu asarda voqealar qanchalik hayratlanarli bo‘lsa, uning uslubi ham shunchalik ta’sirchan. Kitob meni har bir sahifadan ikkinchisiga hayajon bilan o‘tishga undadi” [Hachette UK., n.d.]. Asar tilining soddaligi, tushunarligi va XVI asrga xos bo‘lgan atama va tushunchalarning XXI asr ingliz lug‘at boyligiga mos holda berilgani asarni bir nafasda, to‘xtalishlarsiz o‘qilishini ta’minlaydi.

Asar tuzilish jihatidan 3 bo‘lim, 27 bob, 361 betni tashkil etadi. Asar tarkibi Bobur hayotida muhim rol o‘ynagan hududlarning sketch xaritasi (xomaki – eskiz xarita), asosiy qahramonlar tavsifi, asosiy qism, tarixiy izohlar, muhim qaydlar kabilarni o‘z ichiga oladi. Ushbu sketch xaritalardan (2 ta) tashqari asar tarkibida birorta ham rasm yoki miniatyuralar ko‘zga tashlanmaydi. Asosiy qahramonlar tarkibini yozuvchi quyidagi qismlarga ajratadi:

1. Boburning oila a’zolari.
2. Xotinlari.
3. O‘g‘illari.
4. Amakivachchalari.
5. Ichkilar (yaqin beklar).
6. Farg‘onadagi amaldorlar.
7. Qabila boshliqlari.
8. Boburning dushmanlari.
9. Ititifoqchilari.
10. Kobuldagi amaldorlar.
11. Hindistondagi muhim shaxslar.
12. Boburning ajdodlari.

Asarning asosiy qismini uchta katta bo‘lim tashkil etadi va har bir bo‘lim o‘ziga xos ramziy ma’noni anglatuvchi sarlavhalar bilan nomlangan. Yozuvchi ushbu bo‘limlar vositasida Bobur hayotidagi muhim davrlarni ajratib ko‘rsatadi. Birinchi bo‘lim “Temurning merosxo‘ri” deb nomlanib, 6 bobdan iborat. Bu bo‘lim asosan Boburning otasi Umarshayx Mirzo o‘limidan to Bobur Samarqandni birinchi marta tashlab chiqishga majbur bo‘lguniga qadar kechgan voqealarni o‘z ichiga oladi. “Tojsiz qirol” deb nomlangan ikkinchi bo‘limda birdaniga ikkala yurtidan ayrilgan Boburning ota yurtini ukasi Jahongir Mirzo va Ahmad Tanbaldan qaytarib olishi, sargardonliklar, Samarqandning ikkinchi marta egallanishi va qo‘ldan chiqarilishi hamda ilk bor Kobulda hokimiyat o‘rnatilishi voqealari o‘z aksini topgan – bularning barchasi hajman 8 bobni tashkil qiladi. Asarning eng katta qismi uchinchi bo‘lim bo‘lib, unda Kobulning boshqarilishi va Hindistonni egallashdek katta voqea-hodisalar tasvirlangan.

Taqqoslanayotgan ikki asar ifoda uslubi va voqealar rivoji tasviriga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. “Boburnoma”da voqealar rivoji Boburning Andijon taxtiga o‘tirishi

voqeasidan boshlanadi hamda Bobur faqat o'ziga ma'lum bo'lgan voqealarnigina ta'riflaydi. Ba'zan voqealar rivojidan uzilgan holda ayrim shaxslar ta'rifini keltiradi (masalan, Umarshayx Mirzo, Sulton Ahmad Mirzo, Sulton Mahmud Mirzo, ...). Bu ta'riflarida umumiy shaklni saqlagan holda ta'riflanayotgan shaxslarning tavalludi, nasl-nasabi, shakl-shamoyili, fe'l-atvori, jang va saf tortishib urushlari, viloyatlari, avlodi, xotin va kanizaklari, amirlari haqida ma'lumot beradi. A.Rutserford esa voqealar bayonidan og'ishmagan holda voqea-hodisalarni ketma-ketlikda bayon qiladi, ya'ni Bobur kabi hududlarga ta'rif bermaydi. Asar syujeti torroq – faqat Bobur shaxsi atrofida tasvirlangan. “Boburnoma”da keltirilgan ko'plab voqea-hodisalar, tarixiy shaxslar tushirib qoldirilgan. Misol uchun, tarixiy shaxslardan – Ahmad Mirzoning o'g'illari, Boburning ukasi Nosir Mirzo, qizi Faxriya, Navoiy, Husayn Boyqaro va uning o'g'illari, tog'asi Mahmudxon, Uzun Hasan, Boburning ko'kaldoshlari, ko'plab beklar; voqealardan – Boburning Hirotga borishi, Toshkentga safari va boshqalar. “Boburnoma”da muayyan bir tarixiy voqealarga bog'liq bo'lgan muallif qalamiga mansub she'riy parchalar, shaharlar obodonlichigi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan bo'lsa, A.Rutserford Bobur shaxsiyatining bu jihatlariga kam e'tibor qaratadi yoki deyarli bunday hodisalarni tasvirlamaydi. Shuningdek, mazkur tarixiy-badiiy asar o'zining yaratilish maqsadi, tarixiy voqelikka bo'lgan estetik yondashuvi, hajmi, obrazlar tizimi hamda tasvirlangan voqealar qamrovi jihatidan “Boburnoma”dan tubdan farqlanadi.

MUNOZARA

Asarda tarixiy aniqlikni saqlab qolish masalasi

“Boburnoma” tarixiy haqiqatni haqqoniylik bilan aks ettirgan memuar asar sifatida muhim tarixiy va badiiy qiymatga ega. Asar muallifi uni o'zining shaxsiy kundaligi sifatida yaratgani uchun voqealarni ham birinchi shaxs tilidan hikoya qiladi va bo'lib o'tgan voqealarga anchayin ochiqlik bilan yondashadi, shu bilan birga, o'zining shaxsiy munosabatini ham ifodalab ketadi. “Boburnoma”da tasvirlangan voqealar Bobur shaxsan guvoh bo'lingan yoki boshqalardan eshitgan tarixiy faktlardir va bu nafaqat asardagi ma'lumotlarning, balki asarning ham ishonchligini oshiradi. Tahlilga tortilgan “Mo'g'ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fohitlar” asari esa XXI asrda yashayotgan, manbalarga tayangan holda hodisalarni bayon etayotgan muallifning ijod namunasidir. D.Preston, A.Rutserford taxallusi ostida qalam tebratuvchi ikki yozuvchining biri, “Fantasy Book Critic”ga bergan intervyusida asar manbasi haqida shunday deydi: “Biz Oksford universitetining Hindiston instituti kutubxonalarida mo'g'ullar (boburiylar) tarixi haqida fikr yuritgan tarixchi va yozuvchilarning ko'plab manbalarini o'rganib chiqdik. Lekin bizning asosiy e'tiborimiz original matnda edi, baxtimizga u yerda bunday matnlar juda ko'p edi. “Boburnoma”, “Humoyunnoma” va “Akbarнома” kabi tarixiy manbalar bizga juda asqotdi” [Wanchoo, 2010]. Albatta, asar muallifi uni yaratish mobaynida tarixiy manbalarga tayangani romandagi voqealar izchilligidan ko'rinib turibdi. Asar uchinchi shaxs tilidan yozilgan bo'lib, o'zida muallifning Bobur shaxsiga bo'lgan yuksak munosabatini ham aks ettirgan. Bobur o'z kundaligi orqali kelajak avlodlariga xuddi bobosi Amir Temurdek o'gitnoma

qoldirishni, qilgan xatolari, muvaffaqiyatlari avlodlariga oʻrnak boʻlishini istagan edi. Shuning uchun voqealar tafsilotida hatto oʻzini ham ayamaydi, barchasini roʻyi-rost tasvirlaydi. Biroq A.Rutserford uchun Bobur ideal obraz sifatida namoyon boʻladi, shuning uchun muallif uni asarida adolatli va yetuk hukmdor sifatida talqin etadi.

Muallif asosiy eʼtiborni Bobur shaxsiyatini ochib berishga, uning ezgu orzu-niyatlari, maqsadlari, armon va ogʻriqlarini oʻquvchiga yetkazib berishga qaratadi. Shuning uchun “Boburnoma”da yozilgan barcha maʼlumotlarni qamrab olishdan koʻra Bobur shaxsiyati atrofida sodir boʻlgan voqea-hodisalarni badiiylashtirgan holda bir syujet ipiga solib bayon etishni maʼqul koʻradi. Voqealarni tasvirlar ekan, turli vaziyatlarga, yechimsiz voqealarga yechim boʻlishi mumkin boʻlgan oʻz versiyalaridan foydalanadi. Misol uchun, Boburiylarga “Buyuk moʻgʻullar” deb taʼrif berilishi va unga Boburiylarning munosabati masalasini olsak. Bobur ota tomonidan Amir Temur, ona tomonidan esa Chingiziylar sulolasiga mansub. Markaziy osiyoliklar uni temuriy hukmdor deb hisoblashsa, Yevropa olimlari moʻgʻullardan deb hisoblashadi. Lekin asarni oʻqish mobaynida Bobur oʻzini aynan temuriy yoki chingiziy deb ajratmaganini, balki ikkala tomiridan ham kuch olib, buyuk sarkarda boʻlishga intilganini, xuddi ikki bobosidek butun dunyoni zabt etishni maqsad qilganini anglash mumkin. Uning bu qarashlari asarda Boburning Eron shohi joʻnatgan xatiga boʻlgan munosabatida oydinlashgan, yaʼni Eron shohi oʻz xatida uni haqoratlash uchun “moʻgʻul – yovvoyi” deb ataydi. Bobur esa unga javoban Chingizxon uning bobosi ekanidan, oʻzini ulardan ham deb bilishidan faxrlanishini hamda moʻgʻul nomini sharaf bilan olishini taʼkidlaydi. Bu syujet A.Rutserford tomonidan kiritilgan, ammo “Boburnoma”da keltirilmagan. Bu esa yozuvchining Yevropa olimlari keltirgan, lekin koʻplab bahslarga sabab boʻlgan masalaga berilgan oʻziga xos munosabatidir.

Biroq koʻplab olimlar, jumladan, “Boburning olmosi” asarining muallifi I.Aminiy oʻz asarida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Ajdodlari orasida Bobur Mirzo bobokaloni Amir Temurga yuqori ixlos bilan qarar, shu bois uni moʻgʻullar sulolasiga mansub deb hisoblovchilarni yomon koʻrar va oʻzini moʻgʻullar emas, balki temuriylar sulolasi asoschisi deb hisoblardi” [Aminiy, 2019; 6]. Yoki Umarshayx Mirzo va akasi Sulton Ahmad Mirzo oʻrtasidagi kelishmovchiliklar ham ushbu fikrning isboti boʻlishi mumkin. Sulton Ahmad Mirzo va Umarshayx Mirzolar oʻgay aka-ukalar edilar va ular oʻrtasidagi hududlar uchun boʻlgan kelishmovchiliklar tabiiy hol deb qabul qilinadi. Lekin muallif ular oʻrtasidagi adovatning asosini quyidagi jumlar bilan ifodalaydi:

“... Only half brothers, born of different women, and rivals from the moment they were old enough to realize that each coveted the same thing – Timur’s city. Your uncle Ahmed was the older by four years. He seized Samarkand and spent rest of his life taunting your father. Yet your father had something he did not. In spite of all his women He could not father a son to succeed him. And that, more than anything, he could not forgive. That was why he planned to take Ferghana from you and leave you nothing – perhaps not even your life” [Rutherford, 2009].

“... Ular faqat oʻgay aka-uka edilar, boshqa-boshqa ayollardan tugʻilishgan, bir narsani, yaʼni Amir Temur shahri boʻlgan Samarqandni egallashga boʻlgan ishtiyoqlarini tushunadigan darajada ulgʻayganlaridan beri raqiblardir. Amakingiz

to'rt yoshga katta edi. U Samarqandni egallab oldi va umrining qolgan qismini otangizning ustidan kulishga sarfladi. Otangizda unda yo'q narsa bor edi. Uning xotinalari ko'p bo'lishiga qaramay uning o'rniga davlatni boshqaradigan o'g'li yo'q edi. Va mana shuni hamma narsadan ko'ra ko'proq kechira olmasdi. Shuning uchun u Farg'onani sizdan tortib olishni va sizga hech narsa qoldirmaslikni rejalashtirgan edi, hattoki hayotingizni ham”.

A.Rutserfordning tasviriga ko'ra, aka-ukalar doimo ma'lum hududlar uchun urushlar, bosqinlar uyushtirishgan, bir-birlariga nisbatan haqoratlovchi nazar bilan qarashgan. Hattoki Umarshayx Mirzo akasidan qo'rqmasligini isbotlash uchun uning hududlariga ko'plab bosqinlar uyushtirgani haqidagi fikrlar ham keltirilgan. Uning ustiga Sulton Ahmad Mirzoning merosxo'ri yo'qligi muammosi qo'shilib, bu adovatni alangalatgan. Lekin Bobur o'z qaydlarida keltirishicha, Sulton Ahmad Mirzoning ikki o'g'li bo'lgan, ammo yoshligida nobud bo'lgan [Bobur, 2023; 50]. Bobur o'z xotiralarida amakisi Sulton Ahmad Mirzoga nisbatan ijobiy munosabat bildiradi hamda uning ukasi Umarshayx Mirzoga Toshkent, Sayram va O'ratepa viloyatlarini boshqarish uchun berganini qayd etadi.

Bobur shaxsiyatiga yondashuv

A.Rutserford Bobur shaxsiyatiga ta'rif berar ekan, uni jasur jangchi, qat'iyatli va mulohazakor hukmdor, solih farzand, buyuk ajdodlariga munosib avlod va shu bilan birga vafodor va mehribon do'st sifatida tasvirlaydi. Hukmdor sifatida u amaldorlari va buvisi Eson Davlat begimning maslahatlarini diqqat bilan tinglar, ularning fikrlarini yuksak qadrlar va chuqur muhohaza qilar, lekin so'nggi qarorni o'zi berar edi. Qarorlarini adolat bilan chiqarishda Amir Temur va otasi Umarshayx Mirzolarning hayotiy tajribalariga tayanar edi. Qalban o'ta mehribon bo'lishiga qaramay, siyosat va adolat o'rnatish uchun xiyonatkorlarni ayovsiz jazolar edi. Shu bilan birga, yaqinlari, fuqarosi va do'stlari uchun o'limga ham tayyor edi. Buni sadoqatli begi Ali Mazidbekning vafotiga bo'lgan munosabatida ko'rishimiz mumkin. Bobur bu insonning o'lganiga ikki yil bo'lgan bo'lsa-da, hanuz chuqur qayg'uni his qilar edi. Ushbu tasvir “Boburnoma”dagi No'yon ko'kaldosh o'limi voqeasining transformatsiya bo'lgan ko'rinishidir. Yoki otasidek mehribon va maslahatgo'y bo'lgan vaziri Vazirxon betob bo'lganida tabiblar davo qilayotganiga qaramay tuni bilan o'zi bemor yonida bo'lib, o'z qo'li bilan dori-eliksir ichiradi va shu jarayonda bir paytlar Vazirxon Bobur betob bo'lganida xuddi shunday mehribonlik qilib, o'zi davolaganini eslaydi. Biroq ushbu tasvir “Boburnoma”da uchramaydi, balki bu A.Rutserford ijodiy talqini mahsulidir.

Badiiy asarda yozuvchi uslubi

Asar g'oyasida tarixiy ildizlarga tayanish, o'tgan bobolar amalga oshirgan ishlardan ruhlanish, ularning ishlarini davom ettirishga intilish ruhiyati o'z aksini topgan. Asar boshlanishidanoq yozuvchi Bobur hayotini bobosi Temur va otasi Umarshayx Mirzoning hayot yo'li hamda orzulari bilan bog'laydi. Umarshayx Mirzo tilidan Boburga bir umrlik vazifa topshiriladi, ya'ni Amir Temurning avlodi bo'lsa-da, Farg'onada yashab, aka-ukalari va qarindoshlari bilan

kichik hududlar uchun murosasizlikka borgan Umarshayx Mirzo Boburga Amir Temur qurgan katta imperiya shahzodalarning aqlsizligi va boshboshdoqligi sababli parchalanib ketgani uchun nafaqat boshqa temuriyzoda shahzodalardan, balki o'zidan-da nafratlanishini, unga katta bobosidek buyuk sarkarda bo'lishini, jahongashta bo'lib, bobosiga munosib hayot kechirishini bayon qiladi. Umarshayx Mirzoning bu so'zlari Boburga xuddi vasiyatdek eshitaladi va uni hayron qoldiradi, chunki otasi yosh va hayotga chanqoq edi. Yozuvchi Umarshayx Mirzoni xuddi o'limini oldindan sezgan insondek tasvirlaydi. Voqealar rivojining bunday boshlanishi "Boburnoma"ning asl matnididan biroz farq qilib, A.Rutserfordning badiiy niyatini ifodalashga xizmat qilgan.

Shuningdek, asarda keltirilgan ma'lumotlar shuni anglatadiki, muallif faqatgina "Boburnoma"ga tayanib qolmagan. Chunki, quyida keltiradigan ma'lumotimiz Bobur qaydnomasida o'z aksini topmagan. Samarqandni ilk bor egallagan Bobur taxtga o'tirish marosimidan so'ng, avvalo Amir Temur maqbarasiga tashrif buyuradi. U yerdaligida bobosi haqida eshitgan bir rivoyatni eslaydi. Unda aytilishicha, Amir Temur qabrga qo'yilganidan keyin yarim yilgacha unng sag'anasidan uvullashga o'xshagan qo'rqinchli tovushlar eshilib turar emish. Qo'rqib ketgan mahalliy aholi Shohrux Mirzoga arz qilib, asir etilgan hunarmandlarni ozod etib, o'z yurtlariga jo'natib yuborishini iltimos qiladilar. Mazkur ishlar amalga oshirilgach, sag'anadan qo'rqinchi tovushlar kelmay qoladi. Lekin Bobur bu hikoyatlarga ishonmaydi, ammo Amir Temur tobutining yon qismiga yozilgan jumlar e'tiborini tortadi. Unda shunday deyilgan edi: "If I am roused from my grave, the earth will tremble" [Rutherford, 2009] – "Agar mening qabrim bezovta qilinsa, yer qaltiraydi".

Bundan tashqari, muallif asarni yozish jarayonida jahon adabiyoti va folklori qahramonlariga xos bo'lgan xususiyatlarni Bobur shaxsiyatida mujassamlashtiradi. Tarixan Samarqanddan birinchi marotaba ayrilgan Bobur ikki yilgacha tog'-u toshlarda sargardonlikda yuradi. Andijonni qayta egallash umidi bilan turli katta-kichik qo'rg'onlarga hujum uyushtiradi, Toshkentdagi tog'asi Sulton Mahmudxonidan ko'mak so'raydi. Xon garchi qo'shin jo'natib yordam qilmoqchi ko'rinsa-da, aslida aytarli yordam bermay, muxolifat bilan sulh tuzib, qaytib ketadi. Boburning Andijonni qayta egallashi tog'asi Ali Do'stning Marg'ilonni jangsiz berishi bilan bog'liq bo'lib, bunda Boburning dard-u g'ami ota yurtini qaytarib olish edi. Lekin A.Rutserfordning "Bobur"ida yurt qayg'usidan ham o'zga qayg'u bor edi. Bu – onasi, buvisi va opasini Ahmad Tanbal qo'lidan eson-omon qutqarib olish edi. Chunki, uning dushmanlari "Boburnoma"da keltirilganidek, oila a'zolarini urush boshidanoq sog'-salomat qo'yib yubormagan, aksincha, asirlikda, garovda tutib turgan edi. Bobur ularning hatto o'lik yoki tirik ekanliklarini ham aniq bilmas edi. Ularni qutqarishning yagona yo'li xuddi Vazirxon maslahat berganidek, Ahmad Tanbal qo'shinlariga kutilmagan zarbalar berish va uni qo'rqitish edi. Ushbu voqealar asarning "Hit and Run" ("Hujum qilish va qochib qolish") deb nomlangan bobida keltirilgan. Bobur xuddi jahon adabiyotida tasvirlangan Robin Gud kabi ish tutadi. Unga dushmanlik qilgan, tuzini ichib, unga xiyonat qilgan insonlar ustiga kutilmaganda hujum qiladi va mol-u jonlarini talon-taroj qiladi. Qo'lga tushirilgan o'ljalarni askarlariga bo'lib beradi va bu orqali keyingi harakatlari uchun ko'proq kuch to'playdi. Uning doimiy hamrohi bo'lgan Vazirxon

unga oilasi uchun qayg‘u tortib o‘tirishdan ko‘ra harakat qilish kerakligini, buning uchun puxta reja tuzish lozimligini uqtiradi. Natijada Bobur mustahkam reja asosida umrining ikki yilini tog‘- u toshlarda qaroqchilik qilib o‘tkazadi. Xuddi boshqa xalq qahramonlari kabi ishni kuchli askarlar jamoasini tuzishdan boshlaydi. Askarlari orasidan eng kuchli, sadoqatli, oilasiga bog‘lanib qolmagan, yosh 200ta navkarini olib qolib, qolganlariga uylariga javob beradi. Shimoliy tog‘lardagi eski qal‘ani maskan tutib, ana shu yerdan turib kichik-kichik qal‘alarga hujum qiladi. Ahmad Tanbalning odamlari yetib kelgunicha qal‘adagi askarlarini o‘ldirib, xazinasini talab, qochib qutulib ketadi. Ikki yil muttasil davom etgan mana shunday hujumlar natijasida muxolifatga qarashli bo‘lgan yerlarning katta qismi Bobur qo‘l ostiga o‘tadi. Bu Ahmad Tanbal va uning hamtovoqlarida qo‘rquv hissini kuchaytirib, Bobur bilan sulh tuzishga majbur qiladi. Xayrixohliklarining belgisi sifatida hech qanday talab va istaklarsiz uning onasi, buvisi va opasini sog‘-salomat qaytarib beradi. Yuqorida keltirilgan tasvirlar Bobur shaxsiyati qanchalik kuchli bo‘lganini, yillar, voqealar uning kelajak qarorlariga qay darajada ta‘sir ko‘rsatganini ifodalaydi. Shuningdek, umrining so‘nggi onlaridagi o‘g‘li Humoyun Mirzo bilan bo‘lgan suhbat ham e‘tiborga molikdir. A.Rutserford ota-o‘g‘il suhbatini tasvirlar ekan, Bobur tilidan Humoyunga nasihatlar qiladi. Uni ukalariga nisbatan kechirimli bo‘lishni tayinlaydi.

Asar qahramonlari tasnifi

Asar tarkibida uchraydigan qahramonlarni uch guruhga bo‘lish mumkin:

1. Real qahramonlar.
2. To‘qima qahramonlar.
3. Asl matnda bor, lekin ayni badiiy asardan tushirib qoldirilgan yoki ko‘p e‘tibor berilmagan obrazlar.

Birinchi guruh qahramonlari “Boburnoma”da ham “Mo‘g‘ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fothihlar” asarida ham takrorlangan, lekin qisman o‘zgarishga uchragan obrazlardir. Bularidan biri Eson Davlat begim obrazidir. Bobur o‘z xotinalarida Eson Davlat begimga quyidagicha ta‘rif beradi: “Xotinlar orasida fikrlash va tadbirda ulug‘ onam Eson Davlat begimga yetadigani kam edi. Ko‘p oqila va tadbirli edi. Muhim ishlar ko‘proq ularning kengashi bilan bo‘lardi” [Bobur, 2023; 55]. Bobur o‘z asarida Eson Davlat begimga oqila, uzoqni o‘ylab ish ko‘radigan ayol sifatida ta‘rif beradi. K.A. Lokard ta‘kidlaganidek, “musulmon hamda hindiy jamiyatlarida ayollar asosan jamiyatdan ajratilgan holda saqlangan, otalari va erlariga bo‘ysunishlari talab etilgan. Lekin Mo‘g‘ul (Boburiylar) saroyida ayollar muhim vazifalarni bajarishgan. Jumladan, Xonzoda begim Boburning isyonchi o‘g‘illari orasida bo‘lishi mumkin bo‘lgan xunrezliklarning oldini olgan” [Lockard, 2011]. Biroq bu voqealar tasviri A.Rutserfordning “Mo‘g‘ullar imperiyasi” romanlar to‘plamining ikkinchi qismidan o‘rin olgan. Hindistonlik olimi R.Iftixor o‘z maqolasida Markaziy Osiyoda temuriylar, chingiziylar va boburiylar davrida ayollarning mavqeyi haqida so‘z yuritadi va quyidagilarni ta‘kidlaydi: “Boshqa islom mamlakatlaridan qaraganda temuriylar xonadoni ayollari mustaqilroq va hayotdan zavqlanib yashashgan. Mo‘g‘ullarning rivojlanishida Chingizxonning ajdodi Alanquva muhim rol o‘ynagan yoki Amir Temur saroyining bosh xonimi ham yuqori darajadagi mustaqil ayol bo‘lgan. Yaqinroq tarixga

qaraydigan bo'lsak, Boburning ona tomondan buvisi Eson Davlat begim kuyovining vafotidan so'ng nabirasi kelajagi uchun davlat siyosatiga faol aralashadi" [Iftikhar, 2012]. S.Linet fikriga ko'ra, A.Rutserford asari Boburning onasi, buvisi va opasining siyosiy rolini muvafaqqiyatli ochib bergan. "Mo'g'ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fothlar"da esa unga qo'shimcha sifatlar qo'shilgan hamda Bobur hayotida kengroq o'rin berilgan. Eson Davlat begimning muhimlik darajasi asar boshidayoq namoyon bo'ladi. Umarshayx Mirzo vafotidan so'ng Jahongir Mirzo tarafdorlari Boburga qarshi fitna uyushtirganida Eson Davlat begim o'zining eski qon-qarindoshlik aloqalaridan ustakorlik bilan foydalanadi va Boburni qiyin vaziyatdan osonlik bilan olib chiqadi. Bundan tashqari, Boburning har bir qarorida Eson Davlat begim bergan ta'limotlarning o'rni sezilib turadi. Buvisi yosh hukmdorga doimo avlod-ajdodlari qanday insonlar bo'lganliklari va ularga munosib hayot kechirishi kerakligini eslatib turadi, hattoki Bobur buvisiga dushman bo'lmaganiga shukur aytadi [Rutherford, 2009].

A.Rutserfordning asarida o'zgarishga uchragan tarixiy shaxslardan biri Jahongir Mirzo va uning onasi Fotima Sulton og'a obrazlaridir. Bobur otasining ahli ayolini ta'riflaganida Fotima Sulton og'aga shunday ta'rif beradi: "Yana biri Fotima Sulton og'a bo'lib, mo'g'ul tuman beklari avlodidan edi. Mirzo hammasidan avval shu Fotima Sulton og'ani olgan edi" [Bobur, 2023; 43]. Bobur bergan ma'lumotga ko'ra, Umarshayx Mirzoning rasman 4 ta xotini bor edi. Bular: Fotima Sulton og'a, Qutlug' Nigor xonim, Ulus og'a, va Qorako'z begim. A.Rutserford bu ma'lumotlarga o'zgacha yondashgan holda Qutlug' Nigor xonimni Mirzoning yagona qonuniy xotini, Boburni esa yagona merosxo'r deya ta'riflaydi. Eng qiziq jihati shundaki, asarda keltirilishicha, Fotima Sulton og'a va Jahongir Mirzoning mavjudligi Umarshayx Mirzo vafotidan taxminan yarim yil o'tganidan so'ng ma'lum bo'ladi. Asarda uning ismi Roksana tarzida keltirilgan. Roksana – shimoliy qabila boshliqlaridan birining qizi, 13 yoshida Umarshayx Mirzo uni o'ziga kanizak sifatida tanlagan va uni saroyga olib kelmay o'z qabilasida qoldiradi, oila a'zolariga uning mavjudligi haqida ma'lumot bermaydi, faqatgina ovga chiqqan paytidagina ularni ko'rishga boradi. Roksana 14 yoshida Boburning o'gay ukasi Jahongir Mirzoni dunyoga keltirgan va saroyga kelganida Jahongir Mirzo 8 yoshda edi. Roksananing saroyga otasi Umarshayx Mirzoning muhri tushirilgan xati bilan birga olib keladi. Xatda aytilishicha, agar unga biror kori hol bo'lsa, kanizagi va farzandini haramga olib kelib, g'amxo'rlik qilishlari kerak edi. Dastavval, Bobur ularga ko'p e'tibor qaratmaydi, faqatgina otasining kanizagi va Jahongir Mirzo uning zurriyoti bo'lgani uchun ularga g'amxo'rlik qiladi. Saroyga o'nashib olgan Roksana xiyonatkor amaldorlar ko'magi bilan Boburga qarshi fitna uyushtiradi.

Keyingi o'zgarishga uchragan tarixiy shaxs – bu Jahongir Mirzo obrazidir. Ushbu obrazning dunyoga kelishi va vafot etishi to'g'risidagi ma'lumotlarga asarda biroq o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, dunyoga kelishi to'g'risidagi o'zgarishni zikr etdik. Uning shaxsiyatiga berilgan tasvirlar ikkala asarda ham deyarli o'xshash, lekin Rutserford unga kasalmand, o'z aqli bilan ish ko'ra olmaydigan shahzoda sifatida ta'rif beradi. Shayboniyxon Farg'onaga hujum qilib, aldov bilan qo'lga oladi va uni qatl etadi. Bobur ukasi va Farg'ona ahlini Shayboniyxondan qutqarishga qancha urinsa

ham imkoni bo'lmaydi. Asar syujetida ikki aka-ukaning uchrashuv yoki suhbatini tasviri uchramaydi, xuddiki o'quvchiga ular hech qachon shaxsan ko'rishmagandek tuyuladi, aslida ham A.Rutserford aka-ukalarni aslo "uchrashtirmaydi". Lekin "Boburnoma"da keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, uzoq vaqt Andijon uchun muxolifatga borgan bo'lsalar ham, Bobur Mirzo va Jahongir Mirzo bir maydonda birgalikda jang qilishadi, bir shaharda ittifoqda yashashadi. Bobur uning barcha ayblarini avf etadi, Jahongir Mirzo ham akasiga sidqidildan xizmat qiladi. Xuddi mana shu vaziyatga asoslangan holda umrining oxirida o'g'li Humoyunga ham ukalariga nisbatan keng ko'ngilli, kechirimli bo'lishini, aka-ukalik rishtalarini uzmaslikni vasiyat qiladi. Ammo Hasan Ayyub va Bahlul Ayyub ismli beklar ular orasini buzib, Jahongir Mirzoni Boburdan ayirib olib ketadilar. "Boburnoma"da Jahongir Mirzoning vafot etgani to'g'risida ma'lumot keltirilgan, lekin qachon, qayerdaligi ma'lum emas.

Qutlug' Nigor xonim shaxsi va ushbu badiiy asardagi unga berilgan xarakteristika ham o'quvchini mulohazaga chorlaydi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, kuchli shaxsiyatga ega, irodali ayol deya ta'riflangan. Biroq Bobur oilasi merosi haqida tadqiqot olib borgan hind olimi I.Erali Boburning onasi haqida bergan ma'lumotlariga quyidagi ta'rifni keltiradi: "Boburning onasi haqida faqat uning ismi Qutlug' Nigor xonim bo'lgani va uning nasl-nasabi mo'g'ullardan bo'lganligi haqidagi ma'lumotdan boshqa narsani bilmaymiz. Boburning o'zi ham bu haqda ko'p gapirmagan" [Eraly, 2000]. A.Rutserford esa Qutlug' Nigor xonimni asarida anchayin kuchsiz, irodasiz, qo'rquvlaridan kuchli ta'sirlanadigan va mana shu hayajonlari sog'lig'iga yomon ta'sir ko'rsatgan, umrining oxirida fikri-zikri qizi Xonzoda begimni Shayboniyxon qo'ldan qutqarish bo'lib qolgan ayol sifatida tasvirlaydi.

Boburning ilk hukmronlik davrlaridan to umrining oxirigacha hamrohlik qilgan sodiq beklaridan biri Qosim Qavchidir. "Boburnoma"da tasvirlanishicha, Qosim Qavchin Umayshayx Mirzoning beklaridan bo'lib, Andijonning qadimiy qo'shin beklaridan edi. Bobur va uning oilasiga sadoqatli, iymon-e'tiqodli, mardona kishi bo'lib, qo'l ostidagi hududlarni yaxshi boshqarar edi. Savodsiz bo'lishiga qaramay, ziyarak va sermulohaza, hazil-mutoyibaga usta kishi bo'lgan. Yoshi katta kishi bo'lib, Zamini Dovar fathidan so'ng vafot etadi, Humoyun Mirzoning bекotasi [Bobur, 2023; 45]. Lekin badiiy asarga transformatiya jarayonida "yosh, kamgap, yetim bo'lishiga qaramay yaxshi ta'lim olgan, sadoqatli amaldor sifatida tasvirlanadi. U asosan Boburning ishonchli elchisi vazifasini bajargan. Boburning barcha yurishlarida qatnashgan bo'lsa ham, qaror qabul qilish jarayonida chetda turadi, Vazirxon kabi ta'siri sezilmaydi.

"Boburnoma"da Bobur ismi bilan o'xshash ismga ega, suhbatini yoqimli tanish yigit sifatida tasvirlangan Boburiy obrazi ushbu tarixiy-badiiy asarda asosiy qahramon ko'rinishida tasvirlanadi. A.Rutserford ta'rifiga ko'ra, Boburiy – borin qabilasidan, otasi jangchi bo'lgan, Umarshayx Mirzoga xizmat qilgan. Otasi o'lganida chaqaloq bo'lgan va onasi uni Samarqandga olib kelgan. Yetti yoshligida onasi ham vafot etgan, shundan beri o'z kunini o'zi ko'radi, Bobur bilan tengqur. Samarqanddaligida Boburga ham suvchi sifatida xizmat qilgan. Birinchi marta Shohruhiyada tanishishgan. Boburiyning ta'siri Bobur hayotining keyingi bosqichlarida, ayniqsa Hindistonning

egallanishida muhimligi bilan xarakterlanadi, ya'ni aynan Boburiy Usmonli turklardan zambaraklar va to'fanglarni keltirgani tasvirlangan. Asarda ushbu obraz hukmdorning yaqin do'sti, xalq dardini yetkazuvchi xolis inson va Boburni yaxshi tushuna oladigan tengdoshi sifatida namoyon bo'ladi.

Bobur Mirzoning amakisining qizi Oyisha Begimga uylanishi bilan bog'liq voqeada ham transformatsiya jarayonining izlari yaqqol ko'zga tashlanadi. A.Rutserford Oyisha begimning xarakterini asliyatdan uzmagan holda, undagi bu jarayonga izohlar keltirish yo'lidan boradi va undagi Bobur Mirzoga bo'lgan sovuq munosabatni Oyisha begimdagi mensimaslik, otasining obro' va boyligiga ishonish hamda Bobur Mirzodan oldin unashtirilgan insoniga bo'lgan munosabati bilan ifodalaydi. Bundan tashqari, asarda Oyisha begim Bobur Mirzodan ikki yosh katta deb tasvirlanadi. "Boburnoma"dan farqli ravishda "Mo'g'ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fothihlar" asarida ularning to'ylari ta'rifi to'liq keltiriladi va g'ayritabiyligi bilan Bobur Mirzo va uning atrofida qilarni hayratga soladi.

A.Rutserford asar syujetini to'ldirish, vaziyatlarni o'z uslubida tasvirlash va ayniqsa asardan ko'zlangan badiiy maqsadni amalga oshirish uchun asarga bir nechta to'qima obrazlarni ham qo'shadi. Bular tarkibiga Vazirxon, Boysung'ur, Samarqand bosh vaziri, Yodgor, Rehana (Rayhona), xolavachchasi Qunduz shahzodasi Mahmud, Boburning qaynotasi va yana bir necha obrazlarni misol qilib keltirish mumkin.

Asar tarkibidan o'rin olmagan tarixiy shaxslar va voqealar sirasiga Boburning amakisi Sulton Mahmud Mirzo va uning o'g'illari, tog'asi Mahmudxon, ko'kaldoshlari, qizi Faxriya, ukasi Nosir Mirzo, Husayn Boyqaro va o'g'illari, Boburning Navoiy bilan yozishmalari va ko'plab ma'lumotlar kiradi.

"Mo'g'ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fothihlar" asaridagi qahramonlar tahlili

Qahramonlar	Tarixda bo'lgan va "Boburnoma"da keltirilgan	To'qima obrazlar va "Mo'g'ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fothihlar"da keltirilgan
Ahmad Mirzo	Samarqand hukmdori, Boburning amakisi	Samarqand hukmdori, Boburning amakisi
Eson Davlat	buvisi	buvisi
Jahongir	o'gay ukasi	o'gay ukasi
Xonzoda	opasi	opasi
Qutlug' Nigor	onasi	onasi
Umarshayx Mirzo	otasi	otasi
Oyisha	birinchi xotini, amakisining qizi	birinchi xotini, ikki yosh katta, mingling' qabilasidan
Mohim	to'rtinchi xotini, Husayn Boyqaroning qarindoshlaridan, Humoyunning onasi	ikkinchi xotini, Boysung'urning qizi, Humoyunning onasi
Gulruh	oltinchi xotini, Komron va Askariy mirzolarining onasi	ikkinchi xotini, Komron va Askariyning onasi
Bibi Muborak	eng kenja xotini, Yusufzay qabilasidan	uchinchi xotini, Yusufzay qabilasidan

Dildor	beshinch xotini, Hindolning onasi	to'rtinchi xotini, Hindolning onasi, otasi o'zbek qabilasini Hirotdan haydashda xizmat qilgan va uzoq yo'l bosib Boburga ittifoqdosh bo'lish uchun Kobulga kelgan
Humoyun	birinchi o'g'li, valiahd	birinchi o'g'li, valiahd
Kamron	ikkinchi o'g'li	ikkinchi o'g'li
Askariy	uchinchi o'g'li	uchinchi o'g'li
Hindol	to'rtinchi o'g'li	to'rtinchi o'g'li
Ozarxon	–	Farg'ona zodagonlaridan, to'qima obraz
Shahzoda Mahmud	–	Qunduz shahzodasi
Mirzoxon	–	Farg'ona beklaridan
Tanbal	bek	bek
Boburiy	Andijon o'rda bozori boshlig'ining o'g'li, ba'zan suh- batdosh	Boburning do'sti, keyinchalik begi
Boysung'ur	–	Avval Sulton Ahmad Mirzoning tan- soqchilari boshlig'i, keyinchalik Bobur- ning sodiq beklaridan, Mohimning otasi
Qosim	Qosimbek Qavchin	Boburning elchisi
Vazirxon	–	Umarshayx Mirzoning ko'kaldoshi, eng katta bek
Abdulmalik	–	tabib
Bobo Qashqa	Bobo Qashqa mo'g'ul, bek	Qirollik oilasi nazoratchisi
Boqibek	Muhammad Sharif munajjim	Munajjim, Muhammad Sharif munajjim- ning transformatsiyaga uchragan shakli
Fotima	–	haram boshlig'i
Qambar Ali	Qambar Ali mo'g'ul, otboqarlardan	Vazir
Rehana (Rayhona)		Bobosi Amir Temur qo'shini bilan Hindis- tonda jang qilgan ayol
Roksana	Fotima Sulton begim	Umarshayx Mirzoning kanizagi, Jahon- girning onasi
Valid But	–	Eson Davlatning xodimi
Yodgor	–	Fohishaxonadagi xodima
Yusuf	–	xazinabon
Ali Do'st	Boburning tag'oyisi	G'arbiy Farg'ona boshliqlaridan
Ali Gosht	–	otxona boshlig'i
Ali Mazidbek	Ali Mazid Qavchin, sotqin kishi	Shohruhiya noyibi
Bobo Yasavul	–	hirotlik jangchi
Husayn Mazid	–	Sayram noyibi, Ali Mazidbekning amaki- vachchasi
Shayboniyxon	Boburning dushmani	Boburning dushmani
Shoh Ismoil	Eron shohi, Boburning ittifoqchisi	Eron shohi, Boburning ittifoqchisi
Mulla Husayn	eronlik elchi	eronlik elchi
Aliquli	Ustod Aliquli	qurol-aslaha yasovchi bosh usta
Bahlul Ayyub	–	Samarqand bosh vaziri

Haydar Toqi	+ Haydar Toqining bog'i tarzida kelgan	muhrdor
Muhammad Muqim Arg'un	kobullik bek	hazoralarning boshlig'i
Vali Gul	–	xazinabon
Buva	Bua, Ibrohim Lo'diyning onasi	Ibrohim Lo'diyning onasi
Feruzxon	–	hindistonlik sarkarda
Gvalior oilasi	+	+
Rana Sango	+	Jasurligi va tanasidagi ko'plab jarohatlari bilan mashhur
Ibrohim Lo'diy	+	+
Roshanna	+ ismi berilmagan	Buving xizmatkori
Chingizxon	+	+
Amir Temur	+	+

Badiiy asardagi ramziylik

A.Rutserford o'z asarida alohida e'tibor qaratgan ikki buyum bor, ular Bobur hukmdorlik davrlarining ramzi o'laroq xizmat qilgan. Bular qilich va uzuk detallaridir. Ikki buyum ham Boburning buyuk bobokaloni Amir Temurga tegishli bo'lib, otasi Umarshayx Mirzo va amakisi Sulton Ahmad Mirzolar orqali uning qo'liga yetib kelgan. "Olamgir" deb nomlangan mashhur qilich Umayshayx Mirzoga otasi Sulton Abusaid Mirzodan meros bo'lib o'tgan edi. Bobur bu qilichga o'z asarida ko'p to'xtalmaydi, lekin A.Rutserford unga o'zgacha ma'no beradi, ya'ni Bobur o'z hukmdorligini mana shu qilich vositasida o'rnatadi va Amir Temur davlatining haqiqiy davomchisi o'laroq tarix sahnasiga chiqadi. Bu asardagi Bobur "Boburnoma"da keltirilganidek, Shirim tag'oyi so'ziga ishonib, Axsi yo'lidan qaytmaydi, balki qo'liga "Olamgir"ni olib dushmanlariga qarshi kurashga kirishadi. Bu kurashda unga sadoqatli beklarda Vazirxon va Eson Davlat begim katta ko'mak beradilar. Ilk dushmani bosh vazir Qambar Alini kengash chog'ida o'z qo'llari bilan qatl etadi, shu orqali boshqa amaldorlar uyushtirishi mumkin bo'lgan fitnalarning oldini oladi. Bobur butun umri davomida barcha janjallariga mana shu qilich bilan tushadi va umri oxirida uni o'g'li Humoyun Mirzoga qoldiradi.

Ikkinchi detal Boysung'ur ismli amaldor obrazi bilan bog'liq. Farg'onani o'zining mamlakati hududiga qo'shib olish uchun kelayotgan Boburning amakisi Sulton Ahmad Mirzo Shayboniyxonning kutilmagan hujumiga uchraydi va tomog'idan o'q yeb halok bo'ladi. O'limi oldidan Boburga elchi jo'natib, undan kechirim so'raydi va so'zining isboti sifatida Amir Temurdan qolgan oltin uzugini jo'natadi. Ushbu uzuk Boburni Sulton Ahmad Mirzoning merosxo'ri, bundan keyin Samarqand taxtiga munosib vorisi ekanligini belgilab beradi, chunki Sulton Ahmad Mirzoning o'z merosxo'ri yo'q edi. Bobur bu uzukni doimo ko'z-qorachig'iday asraydi va qilichi kabi uni Humoyun Mirzoga meros qilib qoldiradi. Ushbu uzukni Boburga Sulton Ahmad Mirzo tansoqchilarining boshlig'i Boysung'ur olib keladi. Bu obraz asarga A.Rutserford tomonidan kiritilgan to'qima obraz bo'lib, keyinchalik Bobur va mamlakat hayotida muhim rol o'ynaydi. Boysung'ur – podshoh tansoqchilarining

boshlig'i, shohning so'nggi buyrug'ini bajargani uchun Samarqand bosh vaziri tomonidan tahqirlangan, o'ng qo'li va lavozimidan ayrilgan, keyinchalik Boburning qaynotasi, malika Mohim beginning otasi.

Tarixiy shaxs va voqealarning tarixiy-badiiy asardagi transformatsiyasi

Asar tarkibida asl matndan badiiy asarga transformatsiya jarayonida bir obraz hayotidagi ayrim voqealar boshqasi hayotiga ko'chib qolishi hodisasini kuzatishimiz mumkin. Masalan, A.Rutserford Boburning xolavachchasi Qunduz shahzodasi Mahmud bilan Bobur Mirzoning uchrashuvi tasvirini keltiradi. Sulton Ahmad Mirzoning vafotidan so'ng ilk bora Samarqandni egallashga otlangan Bobur Samarqand yaqinidagi Qo'lba tepaligida xolavachchasini uchratadi. Shahzoda Mahmud unga Samarqand taxti unga kerak emasligi, shunchaki biroz talon-taroj qilib o'lja olish uchun kelganini, eng asosiysi Samarqand bosh vazirining qiziga oshiqligini aytadi va birgalikda hujum qilishni taklif qiladi. Agar g'alaba qozonishsa, Bobur Samarqandni, Mahmud esa qizni oladigan edi. Lekin ular qal'ani egallay olmay ortga qaytishadi. Ushbu syujetning ildizi "Boburnoma"da o'z aksini topgan, ammo boshqa shahzoda nomi bilan bog'liq holda. Boburning amakisi Sulton Mahmud Mirzoning katta o'g'li Sulton Mas'ud Mirzo otasining vafotidan so'ng Samarqandni egallash uchun keladi va uchchala shahzoda – Bobur Mirzo, Sultonali Mirzo va Sulton Mas'ud Mirzo ittifoq tuzib, Samarqandga hujum qilishadi. Biroq qish fasli bo'lib qolgani uchun o'z yurtlariga qaytib ketishadi. Ana shu qaytishida Sulton Mas'ud Mirzo Shayx Abdullo barlosning qiziga uylanadi va yurt olish dag'dag'asini qo'yib, Hisorga qaytib ketadi [Bobur, 2023; 69]. Sulton Mas'ud Mirzo obrazi A.Rutserfordning asariga shahzoda Mahmud tarzida o'tib, badiiylashadi. Shahzoda Mahmud obrazi nafaqat Sulton Mas'ud Mirzoning, balki uning ukasi Sulton Ali Mirzoning ham umumlashgan qiyofasini o'zida mujassam etgan. Asliyatda Bobur Samarqanddagi yuz kunlik hukmronligidan so'ng, Ahmad Tanbal va Uzun Hasan isyonini bostirish, Andijon hokimiyatini ukasi Jahongir Mirzodan qaytarib olish uchun Samarqanddan chiqqanida payt poylab turgan Sulton Ali Mirzo shaharni egallab oladi va Bobur Andijon uchun Samarqand hokimiyatidan ayriladi. "Mo'g'ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fotihlar" asari muallifi esa ushbu voqeani shahzoda Mahmud va uning xotini (sobiq Samarqand bosh vazirining qizi) bilan bog'laydi. Ya'ni, asarda Boburdan shaharni Sulton Ali Mirzo emas, Qunduz shahzodasi Mahmud xotini orqali shahar amaldorlari bilan til birlashtirib egallab oladi.

Asarda uchraydigan ikkinchi transformatsiya Shayboniyxonning Samarqandni Boburdan tortib olishi bilan bog'liq. Shayboniyxon qal'ani qo'ldan chiqqanidan so'ng chekinadi va bahor kelishini kutadi. Erta bahorda Samarqandga qayta hujum boshlaydi. Ochiq jangda mo'g'ullar uni to'lg'ama usuli orqali yengishadi va Bobur uch oy qal'adorlik qilib qamalda qoladi. Ochlik, yetishmovchilik Samarqand aholisini qiyin holatga keltirib qo'yganida Shayboniyxon elchi jo'natib sulh tuzadi va Boburning sog'-salomat shahardan chiqib ketishiga imkon beradi. Buning sababi Shayboniyxonning jyanlaridan biri Mo'g'ulistonda unga qo'shin to'plab, saltanatiga rahna solayotgani edi. Shayboniyxonning esa uzoq kutgani vaqti yo'q edi, shuning uchun tezroq sulh tuzib, ortga qaytishni xohlaydi. Ushbu voqeaning tasvirini biz

“Boburnoma”dan topishimiz mumkin, faqat shahar va boshqa inson bilan bog‘liq. Bobur Hindiston tomonlarga hujum uyushtirib yurgan vaqtida ukasi Nosir Mirzoni Qandahorga mas‘ul qilib qoldiradi. Shaharga hujum qilgan Shayboniyxon yuqorida qayd etilgan sabablar tufayli sulh tuzib qaytib ketishga majbur bo‘ladi. Ushbu taqqoslash shuni tasdiqlaydiki, tarixiy asarga tayangan holda badiiy asar yozish jarayonida yozuvchi o‘zining badiiy maqsadidan kelib chiqqan holda voqealar, shaxslar va ashyolarni o‘z asariga turli o‘zgarishlar bilan transformatsiya qilishlari holatlari kuzatiladi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib xulosa qilsak, XVI asr o‘zbek mumtoz adabiyotining yuksak namunasi bo‘lgan ushbu memuar asar oradan asrlar o‘tganiga qaramay, o‘zining badiiy, ilmiy va ensiklopedik ahamiyatini saqlab qolgan. “Boburnoma” nafaqat o‘zbek, balki inglizzabon yozuvchilarni ham ilhomlantira olgan o‘ziga xos nodir asardir. Hindistondagi Boburiylar imperiyasini bosib olgan inglizlar faqatgina mamlakatning moddiy boyliklari bilan qiziqib qolmay, balki uning ma‘naviy boyliklariga ham katta e‘tibor qaratganliklari “Boburnoma”ning ingliz tiliga bir necha marotaba tarjima qilinishida o‘z isbotini topadi. J.Leyden, U.Erskin, A.S. Beverij hamda U.M. Takstonlar bir asr davomida ushbu asar ustida mehnat qildilar va tarjimalar bilan birgalikda ko‘plab ilmiy asarlar yaratdilar. Ularning mashaqqatli mehnatlari sababli ingliz o‘quvchilarida o‘rta asrlar Hindistoni haqida qimmatbaho ma‘lumotlar olish imkoniga ega bo‘ldilar. Ushbu ma‘lumotlardan ilhom olgan bir necha ingliz yozuvchilari (E.F. Stil, H.Lemb, A.Rutserford) Bobur ijodini chuqur o‘rgandilar, u yashab va bosib o‘tgan hududlarga sayohatlar uyushtirdilar. Ushbu o‘rganishlar natijasida ularda Bobur shaxsiga va ijodiga bo‘lgan o‘zgzacha mehr paydo bo‘ldi. Bu mehrning isboti o‘laroq ingliz kitobxonlarini Bobur shaxsi va faoliyatiga yanada yaqinlashtiruvchi ko‘plab badiiy asarlar yaratdilar.

Ushbu badiiy asarlarning barchasi, albatta, “Boburnoma”da keltirilgan tarixiy ma‘lumotlarga tayangan bo‘lib, mualliflar bu ma‘lumotlarga o‘z dunyoqarashlari hamda asardan ko‘zlangan maqsadlari nuqtayi nazaridan yondashishgan. Shu sababli ularning asarlari turli jihatlariga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Jumladan, H.Lemb asarida tarixiylik kuchli, A.Rutserfordda fantastik yondashuv, E.F. Stil asarida esa ma‘rifiylik xususiyatlari kuchli ifodalangan. Shuningdek, asarlar kompozitsiya, voqealar rivoji va qahramonlar tarkibi jihatidan ham farqlanadi.

A.Rutserford qalamiga mansub “Mo‘g‘ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fothihlar” asari ham badiiyati, ishonarliligi, tarixiy haqiqatni nafaqat o‘zbek, balki dunyoning boshqa inglizzabon o‘quvchilariga ham yetkazishdagi hissasi bilan jahon adabiyotida muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot davomida “Mo‘g‘ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fothihlar” asari “Boburnoma”ning asl matniga tayangan holda tahlil qilindi, asar tarkibidagi transformatsiya jarayonlari, yozuvchi uslubi, badiiy asarda tarixiy haqiqatni saqlash muammolari, asardagi simbolizmning o‘rni va obrazlar yaratilishi jarayonlari o‘rganildi va tahlil qilindi. Tahlil jarayonida qahramonlar to‘qima obrazlar, transformatsiyaga uchragan obrazlar va tushirib qoldirilgan obrazlar

kabi guruhlarga ajratildi hamda ularning har biriga batafsil to‘xtab o‘tildi.

Mazkur asar Bobur hayot yo‘lini muvaffaqiyatli tarzda badiiy lashtirgan romandir. Uning o‘zbek tiliga tarjima qilinmaganligi sababli hozirda o‘zbek kitobxonlari bu asarni o‘zbek tilida o‘qish imkoniyatiga ega emaslar, lekin O‘zbekistonda olib borilayotgan til siyosati va kitobxonlarning ingliz tilidagi savodxonligi ozmi-ko‘pmi bu asarni o‘zbek adabiyoti, o‘zbek kitobxonlariga yaqinlashtiradi. Bundan tashqari, kelajakda “Mo‘g‘ullar imperiyasi: shimoldan kelgan fothihlar”, o‘zbek adabiyotida yaratilgan “Yulduzli tunlar” va Bobur haqidagi boshqa asarlarni o‘zaro adabiy va badiiy jihatdan qiyoslash, tanqidiy va badiiy jihatdan baholash adabiyotshunosligimizning, asarni o‘zbek tiliga mukammal tarjima qilish esa tarjimashunosligimizning muhim vazifalaridan bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aminiy, I. (2019). *Boburning olmosi* (G‘.Satimov, Tarj.). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
2. Bābur. (1857). *Baber-nāmah: Diagataice ad fidem codicis Petropolitani* (N.I. Ilminskiy, Ed.). Kazan: [s.n.].
3. Bābur. (1921a). *Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Emperor of Hindustan* (J.Leyden & W.Erskine, Transl., rev. by L.King). (Vols. 1–2). London: Humphrey Milford.
4. Bābur. (1921b). *The Bābur-nāma in English (Memoirs of Bābur)* (A.S. Beveridge, Transl.; Vols. 1–2). London: Luzac & Co.
5. Babur. (1996). *The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor* (W.M. Thackston, Transl. & Ed.). New York: Freer Gallery of Art.
6. Bartol’d, V.V. (1998). *Kul’tura musul’manstva*. Moskva: Lenom.
7. Bobur, Z.M. (2023). *Boburnoma* (V.Rahmonov & K.Mullaxo‘jayeva tabdili). Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
8. Dale, F.S. (2018). *Babur: Timurid Prince and Mughal Emperor*. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Eagleton, T. (2008). *Literary theory: An introduction* (25th anniversary ed.). Minneapolis: University of Minnesota Press.
10. Eliot, T.S. (1920). Tradition and the individual talent. In *The Sacred Wood: Essays on Poetry and Criticism* (pp. 42–53). London: Methuen & Co.
11. Eraly, A. (2000). *Emperors of the Peacock throne: The saga of the Great Mughals*. New Delhi: Penguin Books.
12. Hachette UK. (n.d.). *Empire of the Moghul: Traitors in the Shadows by Alex Rutherford*. Retrieved March 22, 2025, from <https://www.hachette.co.uk/titles/alex-rutherford/empire-of-the-moghul-traitors-in-the-shadows/9781472205926/>.
13. Haydar, M.M. (2011). *Tarixi Rashidiy*. Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
14. Iftikhar, R. (2012). Behind the veil: An analytical study of political domination of Mughal women. *Quarterly Research Journal of Islamic and Oriental*, 87, 11–29.
15. Collingwood, R.G. (1961). *The idea of history*. Oxford: Oxford University Press.
16. Lamb, H. (1964). *Babur the Tiger: First of the Great Moguls*. New York, NY: Bantam Books.
17. Linet, S. (2021). Salvaging the past: A study of the historical novels of Alex Rutherford and Indu Sundaresan. *PhD thes*. Calicut: University of Calicut.
18. Lockard, C.A. (2011). *Societies, networks, and transitions, Volume II: Since 1450: A global history* (3rd ed.). Boston, MA: Cengage Learning.
19. Lukács, G. (1962). *The historical novel* (H.Mitchell & S.Mitchell, Transl.). London: Merlin Press.

20. Otajonov, N. (1994). "Boburnoma" jahon adabiy jarayonida. *Filol. fan. dok. diss.* Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti.
21. Otajonov, N. (2023). *Bobur and "Boburnoma"*. Warsaw: iScience Sp. z.o.o.
22. Qodirov, P. (2019). *Yulduzli tunlar*. Toshkent: "Navro'z" nashriyoti.
23. Rutherford, A. (2009). *Empire of the Moghul: Raiders from the North*. London: Headline Review.
24. Rutherford, A. (2019, February 23). Writing history: They're a couple but they write under one pseudonym. And they're not at loggerheads. In *The Hindu*. Retrieved March 13, 2025 from <https://www.thehindu.com/books/books-authors/writing-history/article26339453>. ece.
25. Rutherford, A. (n.d.). About the author. In *Empire of the Moghul*. Retrieved March 19, 2025 from <https://empireofthemoghul.com/about-the-author/>.
26. Sanders, J. (2015). *Adaptation and appropriation* (2nd ed.). London: Routledge.
27. Sobirov, M. (2002). "Boburnoma"ning inglizcha tarjimalarida muallif uslubi va badiiyatini qayta tiklash muammolari. *Filol. fan. nomz. diss.* Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti.
28. Sotimov, G'. (2003). *Boburiyodalar*. Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti.
29. Steel, F.A. (1912). *King-Errant*. New York, NY: Frederick A. Stokes Company.
30. Sultonov, X. (1997). *Boburiynoma*. Toshkent: «Sharq» nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati.
31. Wanchoo, M. (2010, June 28). The mind behind the Empire of Moghul: An interview with Alex Rutherford. In *Fantasy Book Critic*. Retrieved March 10, 2025 from <https://fantasybookcritic.blogspot.com/2010/06/mind-behind-empire-of-moghul-interview.html>.

REFERENCES

1. Aminiy, I. (2019). *Babur's diamond* (G.Satimov, Transl.). Tashkent: Publishing and Printing Creative House named after Gafur Gulom.
2. Babur, Z.M. (2023). *Baburnama* (V.Rahmonov & K.Mullakhojayeva, Transls.). Tashkent: Uzbekistan Publishing and Printing Creative House.
3. Babur. (1857). *Babur-nama: Edited according to the Petropolitan manuscript* (N.I. Ilminskiy, Ed.). Kazan: Printing House of Kazan University.
4. Bābur. (1921a). *Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Emperor of Hindustan* (J.Leyden & W.Erskine, Transl., rev. by L.King). (Vols. 1–2). London: Humphrey Milford.
5. Bābur. (1921b). *The Bābur-nāma in English (Memoirs of Bābur)* (A.S. Beveridge, Transl.; Vols. 1–2). London: Luzac & Co.
6. Babur. (1996). *The Baburnama: Memoirs of Babur, Prince and Emperor* (W.M. Thackston, Transl. & Ed.). New York: Freer Gallery of Art.
7. Bartold, V.V. (1998). *The culture of Islam*. Moscow: Lenom.
8. Collingwood, R.G. (1961). *The idea of history*. Oxford: Oxford University Press.
9. Dale, F.S. (2018). *Babur: Timurid Prince and Mughal Emperor*. Cambridge: Cambridge University Press.
10. Eagleton, T. (2008). *Literary theory: An introduction* (25th anniversary ed.). Minneapolis: University of Minnesota Press.
11. Eliot, T.S. (1920). Tradition and the individual talent. In *The Sacred Wood: Essays on Poetry and Criticism* (pp. 42–53). London: Methuen & Co.
12. Eraly, A. (2000). *Emperors of the Peacock throne: The saga of the Great Mughals*. New Delhi: Penguin Books.
13. Hachette UK. (n.d.). *Empire of the Moghul: Traitors in the Shadows by Alex Rutherford*. Retrieved March 22, 2025, from <https://www.hachette.co.uk/titles/alex-rutherford/empire-of-the-moghul-traitors-in-the-shadows/9781472205926/>.
14. Haydar, M.M. (2011). *The history of Rashid*. Tashkent: Uzbekistan Publishing and Printing Creative House.

15. Iftikhar, R. (2012). Behind the veil: An analytical study of political domination of Mughal women. *Quarterly Research Journal of Islamic and Oriental*, 87, 11–29.
16. Lamb, H. (1964). *Babur the Tiger: First of the Great Moguls*. New York, NY: Bantam Books.
17. Linet, S. (2021). Salvaging the past: A study of the historical novels of Alex Rutherford and Indu Sundaresan. *PhD thes*. Calicut: University of Calicut.
18. Lockard, C.A. (2011). *Societies, networks, and transitions, Volume II: Since 1450: A global history* (3rd ed.). Boston, MA: Cengage Learning.
19. Lukács, G. (1962). *The historical novel* (H.Mitchell & S.Mitchell, Transl.). London: Merlin Press.
20. Otajonov, N. (1994). The “Baburnama” in the world literary process: A comparative-topological analysis. *DSc thes. philol*. Tashkent: Institute of Literature named after Alisher Navoiy of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.
21. Otajonov, N. (2023). *Bobur and “Boburnoma”*. Warsaw: iScience Sp. z.o.o.
22. Qodirov, P. (2019). *Starry nights*. Tashkent: Navroz Publishing House.
23. Rutherford, A. (2009). *Empire of the Moghul: Raiders from the North*. London: Headline Review.
24. Rutherford, A. (2019, February 23). Writing history: They’re a couple but they write under one pseudonym. And they’re not at loggerheads. In *The Hindu*. Retrieved March 13, 2025 from <https://www.thehindu.com/books/books-authors/writing-history/article26339453>. ece.
25. Rutherford, A. (n.d.). About the author. In *Empire of the Moghul*. Retrieved March 19, 2025 from <https://empireofthemoghul.com/about-the-author/>.
26. Sanders, J. (2015). *Adaptation and appropriation* (2nd ed.). London: Routledge.
27. Sobirov, M. (2002). Problems of reconstructing the author’s style and artistic features in English translations of “Baburnama”. *Diss. cand. philol. scien*. Tashkent: Institute of Language and Literature named after Alisher Navoiy of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan.
28. Sotimov, G. (2003). *The Baburids*. Tashkent: ‘Spirituality’ Publishing House.
29. Steel, F.A. (1912). *King-Errant*. New York, NY: Frederick A. Stokes Company.
30. Sultonov, Kh. (1997). *Baburiy-nama*. Tashkent: Main Editorial Office of the ‘East’ Publishing and Printing Concern.
31. Wanchoo, M. (2010, June 28). The mind behind the Empire of Moghul: An interview with Alex Rutherford. In *Fantasy Book Critic*. Retrieved March 10, 2025 from <https://fantasybookcritic.blogspot.com/2010/06/mind-behind-empire-of-moghul-interview.html>.